

ADABIYOTIMIZ TARIXI TADQIQOTCHILARINING PESHVOSI

Rahmatulla BARAKAYEV
filologiya fanlari nomzodi, professor

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20676851>

Ustoz Abduqodir Hayitmetov domla tavalludlarining 100 yilligi oldidan u kishining ilmiy faoliyatlari haqida umumlashma maqola yozish oson ish emas ekan. Aslida, bu ish, bir qarashda, osonday. Chunki domla Sharqshunoslik instituti va aspiranturani tugallashlari bilan 1953-yilda Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga ishga kelib, 2005-yilgacha, ya’ni umrlarining oxirigacha, yarim asrdan ko’proq vaqt mobaynida shu dargohda faoliyat olib borganlar. 1967-yildan 1998 -yilgacha o’zbek mumtoz adabiyoti, keyin esa Navoiy bo’limini boshqarganlar. Ularning ilmiy faoliyati ham, go’yoki, bir jumlaginaga sig’adiganday: kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, bo’lim mudiri. Biroq shu davr mobaynida ko’p asrlik o’zbek adabiyotini tadqiq etish sifat e’tibori bilan yangi pog’onaga ko’tarildi. Abduqodir Hayitmetov ilmiy rahbarligida ushbu bo’limda 1976–1980-yillarda besh jildlik “O’zbek adabiyoti tarixi” yaratilgan bo’lsa, 1987–1989-yillarda “O’zbek adabiyoti tarixi”ning rus tilidagi ikki jildligi nashr etildi. Domla bu ikki ko’pjildlikda nafaqat ilmiy rahbar, balki eng sermahsul jamoa a’zosi sifatida ham barchaga o’rnak bo’lgan edilar.

1985-1990-yillarda bajarilgan “Alisher Navoiy qomusi” o’sha davr uchun naqadar dolzarb bo’lsa, 1991-yildan bajarishga kirishilgan Navoiy asarlarining 20 jildlik “To’la (mukammal) asarlar to’plami” istiqlol sharofati bilan Navoiy asarlarini hech qanday qisqartirish va o’zgartirishlarsiz to’laligicha xalqimizga yetkazish yo’lidagi jiddiy qadamgina emas, Domlaning ko’nglida ko’p yillardan buyon yig’ilib yotgan orzularini amalga oshirish borasidagi eng xayrli ish bo’ldi desak, aslo mubolag’a bo’lmaydi. Afsuski, “Navoiy asarlarining benavo nashri” maqolasida so’mning qadri kun sayin tushib borayotgan o’sha davrdagi Institutning amaldagi nochor mablag’lari hisobiga bir amallab chop etilgan bu jiddiy ishning mohiyatiga qarab emas, kitoblar muqovasining har xil rangdaligi-yu, sahifalar qog’ozi oxirgi jildlarda gazeta qog’oziga aylanib qolganiga qarab salbiy baho berilganidan men o’sha paytda ham jiddiy xafa bo’lganman, hozir ham o’sha fikrimdan qaytganim yo’q. Alisher Navoiy asarlari yuzlab yillar mobaynida yaxlit ko’pjildlik tarzida ilk bora chop etilgani o’sha davr uchun juda katta voqea bo’lganida loyiha rahbari bo’lgan Domlaning ulkan xizmatlarini hech bo’lmasa bugun e’tirof etishimiz kerak. Bugungi



kunda kirill va lotin yozuvlarida 10 jildliklar tarzida xalqimizga yetkazilgan Navoiy asarlarining shaklan go‘zal mukammal nashrlari o‘sha, nochor muqova-yu, gazeta qog‘ozida chop etilgan 20 jildlikning o‘zi, faqat shakl o‘zgargan, xolos. “Navoiy qomusi” loyihasi borasida Domla rahbarligida boshlangan xayrli ish esa, bo‘lim ilmiy xodimlari tomonidan zamonaviy talablar asosida yakunlanib, kitobxonga yetkazilganidan ham Domlanning ruhlari shod bo‘lgan deyishga to‘la asosimiz bor.

Aslida, shu bir-ikki jumlagacha sig‘adigan ilmiy faoliyatda Domlanning ming yillik o‘zbek adabiyoti tarixi tadqiqiga bag‘ishlangan qanchadan qancha ilmiy ishlari jamlangan. Eng asosiysi, bularning aksariyati turkiy yoki forsiy tildagi birlamchi manbalar asosida yaratilgan. Yana shu gapni ham qo‘shimcha qilish joizki, Domlanning ilmiy faoliyatlari o‘zbek adabiyoti tarixi tadqiqi bilangina cheklanib qolmagan, balki zamonaviy, ya‘ni XX asr o‘zbek adabiyoti tadqiqiga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlarda ham ularning o‘ziga xos ishtiroklarini tilga olmasdan o‘tish mumkin emas. Ana shu ulkan umumlashma tadqiqotlarni qayd etishning o‘ziyoq A.Hayitmetovni safdoshlari bilan birgalikda uning keyingi yarim asrdan ko‘proq davrdagi rivojlanish yo‘llarini belgilay olgan yetuk alloma sifatida namoyon qiladi. Zero, uning adabiyot tarixi va hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalar bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari, matnshunoslik va manbashunoslik, folklorshunoslikka doir kitob va maqolalari o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi. Domlanning fan taraqqiyotidagi bu qadar serqirra ilmiy faoliyatlari o‘zbek adabiyotshunosligida haqli ravishda “Abduqodir Hayitmetov fenomeni” va “Hayitmetov maktabi” deya tan olingani ham bejiz emas. Ularga ikki marta O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotining berilishi (shuni ham ilova qilish mumkinki, bu mukofot bilan ikki marta taqdirlanganlar o‘zbek ilmi tarixida bor-yo‘g‘i ikki kishi bo‘lib, ulardan bittasi mashhur matematik Toshmuhammad Sarimsoqov bo‘lsa, ikkinchisi Abduqodir Hayitmetovdir), O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi ilmiy unvoni hamda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanishi ham ana shundandir.

A.Hayitmetov 28 yoshida nomzodlik, 39 yoshida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli ravishda himoya qilgan. Bu esa o‘sha davr uchun ham, bugun uchun ham o‘rnak bo‘larli hodisadir.

“Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari” (1959), “Navoiy lirikasi” (1961), “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. X–XV asrlar” (1970,) “Navoiy dahosi” (1970), “Hayotbaxsh chashma” (1974), “Tabarruk izlar izidan” (1979), “Meros va ixlos” (1985), “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” (1996), “Adabiy merosimiz ufqlari” (1997) singari monografik tadqiqotlari,



bir jihatdan, Domlaning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida ilgari surilgan ilmiy muammolarning o‘ziga xos tarzda davom ettirilishi va davr o‘tishi bilan imkon qadar bir nuqtaga jamlanishi mahsuli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, A.Hayitmetov ilmiy faoliyatida Alisher Navoiy hayoti va ijodining turli qirralarini tadqiq etish masalalari doimo birinchi o‘rinda turgani dalolatidir. A.Hayitmetovning ilmiy faoliyatida amal qilib kelgan muhim tamoyillardan biri ishonchli birlamchi manbalar bilan ishlashdir. Olim juda ko‘plab tadqiqot ishlarida kitoblarning bir necha qo‘lyozma nusxasini solishtirib o‘qiganiga urg‘u beradiki, bu hol uning kitoblariga alohida ilmiy salmoq bag‘ishlaydi.

Olimning ilmiy faoliyatida adabiy asarlarga qiyosiy-tipologik yondashuv tamoyiliga amal qilish ham ko‘zga tashlanadi. U hamisha Navoiy asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, kompozision yaxlitligi, lirik xarakter va lirik obrazning takomil tadriji, mavzu rang-barangligi kabi qator ilmiy-nazariy muammolarni Hofiz Sheroziy, Sa‘diy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy va boshqa ko‘plab adiblar ijodidagi ayni masalalar bilan solishtirib, qiyosiy-tipologik usulda tadqiq etgan. Bunday usul o‘rganilayotgan masalani atroflicha yoritish imkonini beradi.

Abduqodir Hayitmetov ilmiy faoliyatida, ayniqsa, hayotining so‘nggi yillarida noma‘lum bo‘lib kelayotgan, Ahmad Taroziyning XV asrning birinchi yarmida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid turkiy tildagi “Funun ul-balog‘a” asarini aniqlash, ilmiy jihatdan o‘rganish va nashr etish nasib qildi. She‘r turlari, qofiya va radif, so‘z va badiiy san‘atlar, she‘riy vazn kabi Sharq poetikasining o‘zak masalalariga bag‘ishlangan bu asarning tadqiq qilinishi va nashr etilishi adabiyotimiz tarixini noma‘lum bo‘lib kelayotgan yangi bir yodgorlik bilan boyitganidan tashqari Amir Temur va temuriylar davri adabiyotini o‘rganishda yanada keng imkoniyatlar yaratdi.

Ulkan olimning matnshunoslik va manbashunoslik bo‘yicha olib borgan ishlari, xususan, Ubaydiy, Turdi, Mashrab, Komil kabi shoirlarning ijodi namunalarini birinchilar qatori nashrga tayyorlaganligi hamda bu so‘z san‘atkorlari haqida yuksak saviyadagi ilmiy-nazariy maqolalar yaratganligi ham tahsinga sazovordir. Bu, aslini olganda, ustoz Abduqodir Hayitmetov faoliyatida ming yillik boy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek mumtoz adabiyotining manbalar asosida imkon qadar to‘liq o‘rganilishiga muayyan siyosiy tazyiqlar tufayli imkon berilmagan bir davrlarda qanchalik qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, yo‘l topishga harakat qilganini tasdiqlaydi. Jumladan, “Ubaydiy” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan, turkiy, forsiy va arabiy tillarda ijod qilgan Buxoro amiri Ubaydullaxonning o‘ziga xos ijodini Domla dastlabki imkon bo‘lishi bilanoq 1994-yilda “Vafo qilsang” nomi bilan nashrga tayyorlab, chop ettirdi va bu mavzuda dissertatsiya tayyorlashni forsiy va arabiy tillarni yaxshi biladigan bir

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

respublika ilmiy-amaliy konferensiya



shogirdi zimmasiga yukladi. Shu birgina misolning o‘ziyoq A.Hayitmetovning adabiyotimiz tarixini imkon qadar to‘liq o‘rganish va xalqimizga yetkazish borasidagi jonkuyarligini tasdiqlashga xizmat qiladi.

Ulkan alloma, ustoz olim, dilkash va to‘g‘riso‘z inson Abduqodir Hojimetovich Hayitmetovning hayot va ijod yo‘li har jihatdan ibratlidir. U kishi hayot bo‘lganlarida shu kunlarda 100 yoshga to‘lgan bo‘lar edilar. Hayot yo‘li bir umr ilm yo‘lida izlanishlardan iborat bo‘lgan ustoz bu yo‘lda nimagaiki erishgan bo‘lsa, ularning barchasi o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotining deyarli barcha sohalarini o‘zida to‘la ravishda aks ettirib, fanning ushbu sohasi rivojiga katta va arziqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning tadqiqotlari ma‘naviyatimiz sarchashmalarini, umumbashariy qadriyatlarni xolisona baholaganligi jihatidan milliy qadriyatlarimiz ildizlarini o‘rganishni yanada kengaytirdi hamda bu bilan ustoz Abduqodir Hayitmetov abadiy barhayot siymolar qatoridan munosib o‘rin egalladi.